



Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences

Journal home page:
<http://ijournal.uz/index.php/jartes>



DRINKING WATER PROBLEM AND THE PROJECT OF DEVICES THAT SOLVE IT

N. Olimova¹

M. Nizamova²

Jizzakh Polytechnic Institute

KEYWORDS

drinking water, smart use, a
global problem

ABSTRACT

In this article, opinions are expressed about what should be paid attention to in terms of "clean" drinking water in our country today.

2181-2675/© 2023 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: 10.5281/zenodo.10051149

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ Assistant, Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan

² Student, Jizzakh Polytechnic Institute, Uzbekistan

ICHIMLIK SUVI MUAMMOSI VA UNI HAL ETUVCHI QURILMALAR LOYIHASI

KALIT SO‘ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА:

ichimlik suvi, oqilona
foydalanish, global muammo

ANNOTATSIYA/ АННОТАЦИЯ

Ushbu maqolada hozirgi kunda yurtimizda “toza” ichimlik suvi xususida nimalarga diqqat e’tibor qaratish lozimligi to’g’risida va zamonaviy loyihalar haqida fikrlar bildirilgan.

Suv sayyoramizdagi qimmatbaho tabiiy resurslardan biridir, shuning uchun uni asrash zarur. Biz hammamiz suv resurslari cheksiz emasligini, hayotimiz va salomatligimiz uning miqdori va sifatiga bog’liqligini yodda tutishimiz kerak. Daryolar, ko’llar, umuman suvning ma’naviy ahamiyati ham katta.

Umuman olganda, ayni paytda ko’plab mutaxassislar hukumatning suv tanqisligi muammosiga yangi yondashuvlar bilan kirib borishi muhim ahamiyatga egaligini takrorlamoqda. Bu jarayonda aholining suvga bo’lgan munosabatini o’zgartirish ham zarur. Ichimlik suvi basseyn to’ldirish, bog’ sug’orish yoki avtomobil yuvishga emas, iste’mol uchun sarflanishi kerakligini tushunib etish lozim.

Jahon banki tahlillariga ko’ra, 2050 yilga borib O’zbekistonda suvga bo’lgan talab 59 kub kilometrdan 62-63 kub kilometrgacha oshadi va mavjud suv resurslari 57 kub kilometrdan 52-53 kub kilometrgacha kamayadi. Bu esa joriy suv tanqisligini besh barobarga oshiradi. Ichimlik suvi ta’minotidan foydalanishda asosiy xavflar – chuchuk suvning taqchilligi, foydalanish uchun raqobat, uning ifloslanishi, qurg’oqchilik va boshqalardan iborat.

Tarix mobaynida insoniyat suv bilan va suv uchun kurashgan. Toza suv – odamzodning jiddiy muammosi. Ichimlik suvi, havo singari, hayot va sog’liqning asosiy manbai hisoblanadi. Inson tanasida suvning etishmasligi sog’liqqa qanchalik zarar keltirishi ma’lum. Organizmda 1foizgina suv miqdorining etishmasligi yurak-qon tomir, nafas yo’llaridagi hastalikka olib kelishning xavfi ortadi. Ming afsuski, bugungi kunga kelib hayot uchun zarur bo’lgan bu resurs haddan tashqari ko’p sarflanadi, isrof qilinadi. Rivojlangan mamlakatlarning aksariyati bu haqiqatni anglab etgan holda, suv va suv resurslaridan barqaror va tejamkorlik bilan foydalanishni yo’lga qo’ygan. Hozirdan suvni tejash madaniyatini insonlarga keng singdirilmasa va ushbu resursni asrashga doir keskin choralar ko’rilmasa, vaziyat iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy muammolarga olib kelishi muqarrardir. Dunyo bo’yicha 1 milliard 100 million aholi suv ichish baxtidan mahrum. SHunday ekan, siz-u biz dunyodagi eng baxtli odamlarmiz.

Qorakalpog'iston Respublikasida joylashgan Chimboy tumani meteostansiyasiga atmosfera havosidan ichimlik suvini ishlab chiqarish "atmosfera suv generatori" (Airaqua - 7-ta tozalash filtridan iborat) qurilmasi tajriba (sinov) tarzida ishga tushirildi.

Mazkur qurilma ichimlik suvi etib bormagan va etkazib berish iqtisodiy jihatdan qimmatga tushadigan hududlarga moslashtirilgan. Ushbu innovatsion texnologiya sinov tariqasida yo'lga qo'yildi va undan olinayotgan statistik ma'lumotlardan foydalangan holda Respublikamizdagi boshqa viloyatlariga o'rnatilishi kutilmoqda.

Atmosfera havosi namliklarning ulkan rezervuari ekanligini hisobga olsak, atmosfera suv generatorini o'rnatish atmosfera suvini ishlab chiqaruvchi dunyodagi eng samarali qurilma deb hisoblasak bo'ladi. Shuni ta'kidlash lozimki, ushbu moslama distillangan suvdan xam tozaroq suv olish imkonini beradi.

Qurilma atmosfera havosi namligiga va haroratga qarab kuniga taxminan 12 litrdan 30 litrgacha ichimlik suvi yetkazib berish imkonini beradi, qulayligi shundaki ko'p quvvat (1 kVt) talab qilmasligi, ixcham, ekologik toza, foydalanishda texnik jihatdan inson hayotiga xavfi yuq.

Aslida toza ichimlik suvi butun dunyodagi eng global muammolardan biri. Shu bois suvni tejab ishlatish har bir fuqaroning burchi hisoblanadi. Og'riqlar ila ingrayotgan orol dardi ham barchamizniki! Foydalanishga suvi yo'q, minglab chaqirimlardan kundalik ehtiyojlari uchun suv tashib yashaydigan insonlarga oson emas albatta. Buni o'z avtomashinasini yuvish uchun toza ichimlik suvini soatlab oqizib qo'yib isrof qilayotganlar qayoqdan bilsin?! Agar holat shu zaylda davom etaverar ekan ichimlik suvi pulini to'lamagan "qarzdorlar" kamaymaydi. Ichimlik suvi muammosi esa ich-ichimizdan yemirayotgan muammo bo'lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. UN World Water Development Report 2016// (<https://www.unwater.org/publications/un-world-water-development-report-2016>)
2. Jahon Banki ma'lumotlari asosida tahlil qilingan. (<http://data.worldbank.org>)
3. Portal znaniy o vodnyx resursax i ekologii sentralnoy Azii. //URL: <http://www.cawater-info.net/library/index.htm>
4. Global Report on Food Crises (GRFC 2022) sixth annual Report of FAO// <https://www.fao.org/3/cb9997en/cb9997en.pdf>
5. "O'zbekiston iqlimi keskin quruqlashib bormoqda" <https://kun.uz/news/2021/11/10/ozbekiston-iqlimi-keskin-quruqlashib->

bormoqda-gidrometerolog

6. Наргиз О., Зарина Б. ПЕРИОД ЧУВСТВИТЕЛЬНОСТИ И ВЫСОКОГО КАЧЕСТВА ЛЕКАРСТВЕННЫХ РАСТЕНИЙ //Журнал академических исследований и тенденций педагогических наук. – 2023. – Т. 2. – №. 2. – С. 410-413.

7. Олимова Н. и др. Движение пылевых потоков в пылеулавливающем оборудовании, траектории и динамика капель на основе технических характеристик пылеулавливающей камеры //Сеть конференций E3S. – EDP Sciences, 2023. – Т. 434. – С. 03027.

8. Алиева Р. и др. Кислотостойкие покрытия из жидкого стекла с использованием отходов производства кальцинированной соды //Сеть конференций E3S. – EDP Sciences, 2023. – Т.

9. Гуламовна О.Н. Исследования, проведенные с целью повышения эффективности пылеулавливающего оборудования на хлопкоочистительных предприятиях //Техасский журнал техники и

10. Gulovna O. N. Technological Processes of Dust Cleaning At Ginneries //Eurasian Journal of Engineering and Technology. – 2023. – Т. 19. – С. 31-34. технологий. – 2023. – Т. 21. – С.

11. Авалбаев Г. А., Алиева Р. А., Сорабекова М. Основы массообмена между твердым телом и газожидкостной смесью //Журнал современной философии, социальных и гуманитарных наук. – 2023. – Т. 17. – С. 67-71. 17-21.

12. Бобоев С. М., Олимова Н. Г. ИССЛЕДОВАНИЕ ВЕНТИЛЯЦИОННОЙ СЕТИ И ПУТИ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ПЫЛЕУЛАВЛИВАЮЩЕГО ОБОРУДОВАНИЯ НА ХЛОПКОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЯХ //Vestnik Volgogradskogo Gosudarstvennogo Arhitekturno-Stroitel'nogo Universiteta. Seriya: Stroitelstvo i Arhitektura. – 2022. – №. 88.

13. Olimova N. et al. Dust flow motions in dust collection equipment, droplet trajectories and dynamics based on the dust collection chamber's technical characteristics //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2023. – Т. 434. – С. 03027.